O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/7/1]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UDK:378

*Muxabbat YUSUPOVA,*
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti,PhD*
*E-mail.m.yusupova@cspi.uz*

*PhD N.Maxmudova taqrizi asosida*

# LOYIHA TEXNOLOGIYASIDAN PEDAGOGIK JARAYONDA FOYDALANISHGA OID MILLIY VA XORIJIY ILG‘OR TENDENTSIYALAR

Annotatsiya

Bugungi kunda jahon ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni xalqaro hamkorlik va muloqotga tayyorlash jarayonini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishning loyiha texnologiyasi amaliyotga tadbiq etilmoqda. Bu borada umumevropa xalqaro standartlariga asosan bo‘lajak chet tillari mutaxassislarini tayyorlashda CEFR, IELTS, TOEFL malaka talablari asosida oliy ta’lim sifatini xalqaro darajaga ko‘tarish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o‘qitishning ilg’or uslublarini joriy etish, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini o‘quv jarayonida loyiha texnologiyasidan foydalanishga o‘rgatish bo‘yicha yirik loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.

**Kalit so‘zlar:** Loyiha texnologiyasi, ingliz tilini o‘qitish, uzluksiz taьlim, pedagogik faoliyat, zamonaviy metodlar.

# ОТЕЧЕСТВЕННЫЕ И ЗАРУБЕЖНЫЕ ПЕРЕДОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ СВЯЗАННЫЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРОЕКТНОЙ ТЕХНОЛОГИИ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация

Сегодня в мировых образовательных учреждениях внедряются на практике проектные технологии расширения возможностей развития процесса подготовки будущих учителей к международному сотрудничеству и общению. В связи с этим повышение качества высшего образования до международного уровня на основе квалификационных требований CEFR, IELTS, TOEFL, использование современных педагогических и информационно-коммуникационных технологий, внедрение передовых методов преподавания, системная работа подготовка будущих учителей английского языка в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** Проектная технология, обучение английскому языку, непрерывное образование, педагогическая деятельность, современные методы.

# NATIONAL AND FOREIGN ADVANCED TRENDS RELATED TO THE USE OF PROJECT TECHNOLOGY IN THE PEDAGOGICAL PROCESS

Annotation

Today, in world educational institutions, project technologies for expanding the possibilities of developing the process of preparing future teachers for international cooperation and communication are being put into practice. In this regard, raising the quality of higher education to an international level based on CEFR, IELTS, TOEFL qualification requirements, using modern pedagogical and information and communication technologies, introducing advanced methods of teaching, training future English language teachers in the educational process systematic work is being carried out aimed at the implementation of large-scale training projects.

**Key words:** Project technology, English language teaching, continuous education, pedagogical activity, modern methods.

**Kirish.** Respublikamizda so‘ngi yillarda uzluksiz ta’limning har bir bo‘g’imida chet tillarni mukammal o‘rgatish, tizimlararo mazmunan uzviylikka ustuvorlik bergan holda nutqiy muhit shart-sharoitlarini innovatsion yondashuvlar va vositalar orqali takomillashtirish bo‘yicha huquqiy meyoriy asoslar yaratilgan. Xorijiy tillarni o‘rganish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, xorijiy tillarni o‘qitishning xalqaro tan olgan dastur va darsliklari ta’limning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish hamda o‘qituvchilarda zamonaviy o‘qitish ko‘nikmalarini rivojlantirish vazifalari belgilangan. Uzluksiz ta’limning har bir bo‘g’inida xorijiy tilni o‘rgatishning uzluksizligi va uzviyligini ta’minlashga keng imkoniyatlar yaratilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Loyiha texnologiyasi XX asrning 20-yillarida AQShda paydo bo‘lib, unga insonparvarlik pedagogikasining asosiy qirralaridan biri sifatida qarala boshlandi. Uni ilk bor loyiha metodi yoki muammoli metod sifatida ta’lim jarayoniga tatbiq qilishdi. Mazkur texnologiyaning asosiy g’oyalari amerikalik pedagog olim Jon Dyui tomonidan ishlab chiqilgan.

Olimlarning fikricha, loyiha texnologiyasi tahsil oluvchilarning shaxsiy qiziqishlarini inobatga olgan holda, ta’lim jarayoniga tatbiq qilinishi va ta’lim sub’ektlarining o‘quv jarayonidagi faoliyatini maqsadli yo‘naltirishga mo‘ljallanishi lozim edi. O‘quv jarayonidagi didaktik paradigma real hayotdan olingan vaziyatli muammo bo‘lishi va ushbu muammoning yechimi jamoaviy tarzda yoki kichik guruhlarda fan yutuqlaridan foydalanib, mustaqil topilishi, muayyan natijani qo‘lga kiritishga xizmat qilishi lozim. Bunda muammo va uning yechimi yaxlit holatda loyihalash faoliyatidan iborat bo‘lishi zarur.

Ingliz tilini o‘qitishda samarali pedagogik metodlardan foydalanish, xorijiy tillarni o‘rganishning o‘ziga xos jihatlari, psixologik mohiyati, ingliz tiliga asoslangan muloqot jarayonini tashkil etish omillari, yo‘llari, metodik ta’minoti masalalari O.A.Dolgina, A.Yu.Malofeev, R.P. Milьrud, N.N.Naydenova, Ye.N.Pikeeva, S.V.Plotnikova, M.Z.Biboletova, N.N.Trubaneva, N.D.Galьskova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorij olimlari Max Walter, Michael West, Maximilian Berlitz, Anthony Philip kabilar tomonidan innovatsion ta’lim masalalariga bag’ishlangan qator dolzarb masalalar o‘rganilgan bo‘lib, ularda ta’limni rivojlantirish strategiyasi, o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorligining kasbiy-shaxsiy omillari va ularni shakllantirish masalalari o‘rganilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Loyiha texnologiyasi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimida tahsil oluvchida: tashabbuskorlik, mustaqillik, ijodkorlik kabi shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga mo‘ljallangan texnologiya. Ushbu texnologiya zamirida o‘quv loyihalarini bajarishga yo‘nalgan ta’lim maqsadi ilmiy mujassamlashganligini ko‘rish mumkin.

Loyiha texnologiyasining ta’lim jarayonida ta’minlanishi natijasida ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi o‘rtasidagi mahsuldor faoliyat sodir bo‘ladi. Mazkur faoliyat natijasida ta’lim oluvchi o‘z faoliyatidan qoniqish hissini boshidan kechiradi. Chunki loyiha ustida ishlash jarayonida ta’lim oluvchi o‘z-o‘zining faoliyatini rejalashtirishga, tashkil qilishga o‘rganadi, muvaffaqiyatni his etadi.

Loyiha texnologiyasi aql va tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizim hisoblanib, loyiha texnologiyasi borasidagi g’oyalar rus va amerika pedagog olimlarining parallel izlanishlari natijasida rivojlandi. Ushbu yo‘nalishda P.P. Blonskiy, S.T. Shatskiylar salmoqli ilmiy tadqiqotlar olib borishdi. Biroq 1930 yillardan so‘ng ushbu texnologiya mafkuraga zid texnologiya sifatida baholanib, ko‘p yillar mobaynida undan ta’lim jarayonida foydalanilmadi. So‘nggi yillarda ta’lim jarayonidagi islohotlar natijasida mazkur texnologiyaga qiziqish yanada ortib bordi.

Ingliz tilini o‘qitishda mazkur texnologiya o‘qituvchining ta’lim – tarbiya jarayoni maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo‘lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llanilishi mashg’ulotlarni samarali tashkil etishga, yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o‘z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o‘z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi va ingliz tilini o‘qitishda samarali natijalarni beradi.

Rus olimi V.P.Bespalьkoning ta’kidlashicha “...ta’limda qo‘llaniladigan yangi mohiyatdagi didaktik texnologiyalar ma’lum bir vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur paradigma yangi ilmiy va amaliy pedagogik faoliyat tizimini yaratib beradi. Uning asosida ta’lim oluvchi atrof- muhitda yangi moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratish uchun tayyor holatga keltiriladi”. Demak, texnologiya faoliyatni natijaga olib keluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogik faoliyatda har qanday loyiha texnologiyaning tayanch nuqtasi hisoblanadi. Binobarin, zamonaviy ta’limda loyiha texnologiyasidan foydalanish oliy ta’limning ham mazmun, ham tashkiliy tuzilmaviy jihatdan qayta ishlab chiqish masalasi bilan bevosita bog’liq holda hal etiladi. Bugungi kunda ingliz tili o‘qituvchisi o‘z pedagogik faoliyatini pedagogik innovatsiya asosida tashkil eta bilishi hamda boshqarishi, o‘z pedagogik faoliyati uchun zarur bo‘lgan pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni ishlab chiqqan bo‘lishi, ularni kundalik faoliyatida ta’lim jarayoniga tatbiq eta olishi, pedagogik texnikaga ega bo‘lishi, o‘z faoliyatini loyihalashtira olishi, xorijiy tilni o‘qitishning bosqichma-bosqich (step-by-step) yaxlit modelini yarata olishi zarur. Demak, ingliz tili o‘qituvchisi zimmasiga yuklatilgan turli yangi mohiyatdagi vazifalar ko‘lami keng bo‘lib, ularning barchasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berish lozim. O‘zbekistonda ta’lim tizimining dunyoviy tavsifga ega ekanligi, bilimli bo‘lish va shaxs iste’dodlarini rag’batlantirish kabi tamoyillar shuni taqozo etadi.

Psixologiya sohasida tadqiqotlar olib borgan mutaxassislar D.S.Bruner, L.C.Vыgotskiyning qo‘lga kiritgan xulosalari loyiha faoliyatining kognitiv faoliyatni faollashtirish va shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatishini isbotlab bergan.

OTMda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini o‘quv jarayonida loyiha texnologiyasidan foydalanishga o‘rgatish ularning bilim egallashga bo‘lgan motivatsiyasining takomillashuviga olib keladi.

Loyiha texnologiyasining o‘quv jarayonida foydalanilishining afzalliklari mutaxassislar tomonidan samarali texnologiyalardan biri sifatida baholanishi bilan bir qatorda, unga nisbatan aniq qarashlar ham shakllangan bo‘lib “birgalikda ta’lim olish nafaqat oson va qiziqarli, balki bir muncha samarali” deya ta’riflar ham berilganligini ham qayd etish lozim.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini loyiha texnologiyasi asosida o‘quv jarayoniga tayyorlash jarayoni quyidagilarga qaratiladi:

talabalarda o‘quv-bilish motivatsiyasini oshirish;

talabalarda bilish faoliyatini rivojlantirish;

tahsil oluvchilarning darsga tayyorgarligiga bo‘lgan mas’uliyatni oshiradi va keyingi o‘quv faoliyatiga rag’bat sifatida namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini o‘quv jarayonida loyiha texnologiyasidan foydalanishga o‘rgatishda o‘quv-bilish vaziyati o‘z xarakteriga ko‘ra muntazam, rivojlanuvchi, jarayonli faoliyat. Ushbu pedagogik jarayonning muvaffaqiyatini ta’minlash uchun o‘qituvchi va talabalarning xohish-irodasi, ongliligi, faolligi muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa.** Ingliz tilini o‘qitish jarayonida loyiha texnologiyasini qo‘llash: belgilangan ta’lim mazmuni, maqsadi va tarkibiy tuzilishi asosida tashkil etilishi; talabalarda ingliz tili o‘quv kursining ilmiylik elementlari singdirilgan poydevorini shakllantirishi; o‘quv faniga bo‘lgan qiziqishni orttirishi; talabalarda ingliz tilida o‘qish, yozish, tinglab tushunish, og’zaki nutqni takomillashtirishi; ijodiy fikrlash ko‘nikma va malakalarga asos solishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

## ADABIYOTLAR


1. Jay Martin The Education of John Dewey. A Biography, Columbia University Press, New York, 2002. – p.562 (30)
2. Блонский П.П. Память и мышление. –Питер,2001. –288 с (62)
3. Шацкий С.Т. Избранные педагогические сочинения: в 2 т. –М.: 1983. – 345 с.
4. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.
5. Полат Е.С. Метод проектов на уроках английского языка. http://center/fio.ru/do/news.asp.
6. Yusupova M Psychological aspects of teaching foreign languages Academic Research in Educational Sciences, Volume 1, ISSUE 3, ISSN: 2181-1385. 2020, pp. 1218-1224.
7. Юсупова М , Шорахметов Ш.С Лойиҳа технологиясининг таълим жараёнида қўлланилишининг ижобий томонлари Academic research in educational sciences, Vol:2 ISSUE 3, 2021. ISSN: 2181-1385. pp. 660- 668.
8. Юсупова М, Мирзаева М.А Central Asian Research Journal for Interdisciplinary studies (CARJIS), Volume 2/ ISSUE 2/ 2022, pp. 282-288
9. Мухамедов Г.И. , Юсупова М Applying innovative technologies in teaching a foreign language in online learning Academic research in educational sciences 2(CSPI Conference 2), Vol 2, “Innovative technologies in teaching foreign languages and learner assessment in online education” International Scientific-Practical Conference, October 15-16, 2021. pp. 6-9
10. Жалалова С.Ж. Инновационные технологии в обучении иностранным языкам и оценка знаний студентов в процессе онлайн обучения Academic research in educational sciences 2(CSPI Conference 2), Vol 2, “Innovative technologies in teaching foreign languages and learner assessment in online education” International Scientific-Practical Conference, October 15-16, 2021. pp. 60-64
11. Yusupova M Learning assessment strategies in education Academic research in educational sciences 2(CSPI Conference 2), Vol 2, “Innovative technologies in teaching foreign languages and learner assessment in online education” International Scientific-Practical Conference, October 15-16, 2021. pp. 489- 490